

Mavzu: O`zbekiston Respublikada ijtimoiy sohaning ro`li, ahamiyati va rivojlanishda qonun ustuvorligini ta`minlovchi tadbirlar

«Aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalash sira kechiktirib bo'lmaydigan, eng ustuvor vazifa, amaliy harakatlarning eng asosiy qoidasi»

I.A.Karimov

Bajardi: G`aniyev Sh.

Qabul qildi: Murodov Sh.

Ижтимоӣ соҳа



Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab respublikada aholini ijtimoiy himoya qilishning qonuniy asoslarini yaratilgan.


- O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 18-noyabrida "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan. Ushbu qonun nogironlarga huquq va erkinliklarni ro'yobga chiqarishda O'zbekiston Respublikasining boshqa barcha fuqarolari bilan teng imkoniyatlarni ta'minlash, ularning turmush faoliyatidagi cheklashlarni bartaraf etish, nogironlarni to'laqonli hayot kechirishlariga, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy turmushida faol qatnashishlariga, shuningdek o'zlarining fuqarolik burchlarini bajarishlariga imkon beradigan qulay shart - sharoit yaratish maqsadida davlatning nogironlarga oid siyosatini belgilaydi.

O`zbekistan Respublikasi Konstitutsiyasida

- "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo`qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo`lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo`yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo`lishi mumkin emas", - deb belgilab qo`yilgan ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega.

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
IX bob. 39 modda. – T., 2009. – 9-b.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining teng huquqli a'zosi sifatida MDH davlatlari orasida birinchilardan bo'lib, ko'plab xalqaro hujjatlarni e'tirof etdi va o'z zimmasiga xotin - qizlarga nisbatan kamsitish siyosatini o'tkazmaslik vazifasini oldi hamda xotin - qizlarning faolligini oshiruvchi tadbirlarni belgiladi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 25-maydagi "O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qildi.



2012 – 2017-yillarda ijtimoiy himoya tadbirlariga O`zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan yalpi ichki mahsulot hajmining 2,2 - 1,8% miqdorida mablag`lar ajratishi va uning asosiy qismi kam ta'minlangan oilalarga, shu jumladan bolali oilalarga nafaqalar berishga sarflandi. 2017-yilda ijtimoiy himoyaga davlat byudjeti xarajatlari 379,6 mlrd. so`m (YAIM ning 1,8%) ni tashkil etdi. Ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy yordam, ijtimoiy reabilitatsiya (tiklash) tadbirlari ijtimoiy himoyaning tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Davlatning ijtimoiy sohasi uchun sarflangan xarajatlari, aholi jon boshiga hisoblaganda, 5 martadan ko'proq oshdi, har yili Davlat byudjetining qariyb 60 foizi sog'liqni saqlash, ta'lim, kommunal xo'jalik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bilan bog'liq boshqa sohalarni rivojlantirish uchun yo'naltirilmoqda



"Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya jamg'armasining bemor va nogiron bolalarni sog'lomlashtirish bo'yicha 2008-yildan buyon amalga oshirib kelayotgan dasturlaridan biri bu Janubiy Koreyalik mutaxassislar bilan hamkorlikda yurak tug'ma nuqsoni bo'lgan bemor bolalarni Janubiy Koreya klinikalarida sog'lomlashtirish dasturidir. Ushbu dastur doirasida o'tgan yillar mobaynida 40 dan ziyod bemor bolalar jarrohlik yo'li bilan sog'lomlashtirildi.

2017-yil davomida aholi salomatligini muhofaza qilish, sog`liqni saqlash tizimini takomillashtirish va samarasini oshirish, profilaktika ishlarini kuchaytirish bo`yicha ham ko`plab ishlar amalga oshirildi.


Tug`ruq yoshidagi 7 million ayol hamda 7 million 300 ming nafar bola tibbiy ko`rikdan o`tkazildi, 195 ming nafar yolg`iz qariyalar, nogiron va pensionerlarga malakali tibbiy yordam ko`rsatildi

Yil mobaynida mamlakatimiz bo`yicha 411 milliard so`mlik byudjet mablag`i hisobidan 151 ta zamonaviy tibbiyot muassasasi foydalanishga topshirildi. Jumladan, Andijon viloyat ko`p tarmoqli tibbiyot markazida yangi davolash korpusi va diagnostika bo`limi, bolalar kasalliklari sanatoriysi barpo etildi.

2017-yil davomida qishloq joylarda 197,2 km uzunlikdagi tabiiy gaz, 1665 km uzunlikdagi ichimlik suv tarmoqlari quvurlarini tortish, 366 ta qishloq aholi punktida ichimlik suv ta`minoti ob'ektlarini rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish boshqarmalarini 2100 dona maxsus texnika bilan ta`minlash, 134 ta ko`p qavatli uylarni mukammal ta`mirlash ishlari amalga oshirildi.

2016-2020-yillarda mamlakatimizda xizmatlar sohasini rivojlantirish hisobiga yalpi ichki mahsulotni ko'paytirish, uning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ulushini 48,7 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.

O'zbekistonda dorixona muassasalari tarmog'i keng rivojlangan. Ayni paytda mamlakatimiz hududida 8472 xususiy dorixona va ularning filiallari, shuningdek, "Dori-darmon" aksiyadorlik kompaniyasi tizimiga kiruvchi 1437 dorixona faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 70 va 114 tasi olis qishloqlar aholisini dori-darmonlar bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan ijtimoiy va sayyor dorixonalaridir.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholini dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorida 2017 yilning 1 yanvaridan chetdan olib kelinadigan, shuningdek, mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilaridan sotib olinadigan dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlarini ulgurji va chakana sotish, ularni yetkazib berishda ishtirok etuvchi vositachilar sonidan qat'i nazar, ulgurji savdo uchun sotib olingan qiymatidan 15 foizdan, chakana savdo uchun ulgurji narxidan 20 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorlarda belgilanadigan cheklangan savdo ustamolari qo'llanilishi belgilanmoqda.



Hulosa

- Xulosa qilib aytganda O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida ko'plab kafolatlari va imtiyozlar mavjud. Ulardan urush nogironlari, qatnashchilari va ularga tenglashtirilganlar; o'zgarar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksa pensioner va nogironlar; boquvchisidan ajralgan oilalar, kam ta'minlangan oilalar; "Mehribonlik uylari" va maktab internatlarni bitirib chiqqan va oilasi yoki qarindoshlari bo'lmagan yetim bolalar; ijtimoiy xususiyatga ega surunkali va og'ir kasalliklarga chalingan, lekin nogiron bo'lmagan shaxslar; mehnat organlarida rasman qayd etilgan ishsiz fuqarolar toifalari foydalanadilarinishlari mumkin.